

PUNKTUATSIYA SABOQLARI: „O‘QUVCHILARDA YOZMA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILI“

Tohirova Gulnoza Doniyorbek qizi

TOSHDO‘TAU Ona tili va adabiyoti

ta’limi fakulteti 3-bosqich talabasi

gulnozatoxirova9@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada punktuatsiya saboqlarining o‘quvchilarda yozma savodxonlikni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Tinish belgilarining mantiqiy, uslubiy va estetik ahamiyati tahlil qilinib, ularni o‘rgatishda samarali metodlar, amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Maqola umumta’lim maktablari o‘qituvchilari va pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: punktuatsiya, yozma savodxonlik, tinish belgilar, ona tili ta’limi, fikr ifodasi, metodik yondashuv, o‘quvchilarda nutq madaniyati.

Abstract: This article highlights the role of punctuation lessons in the formation of written literacy in students. The logical, methodological and aesthetic significance of punctuation marks is analyzed, and effective methods and practical recommendations for teaching them are proposed. The article may be useful to teachers of secondary schools and students studying in the pedagogical direction.

Key words: punctuation, written literacy, punctuation marks, native language education, expression of thought, methodological approach, speech culture among students.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli axborot asrida insonning fikrini aniq, lo‘nda va to‘g‘ri ifoda eta olishi, ayniqsa yozma nutqda, muhim ko‘nikmaga aylanib bormoqda. Til — bu faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkur mezoni, madaniyat ko‘zgusi hamdir.

Ayniqsa, o'quvchilarda yozma savodxonlikni shakllantirishda punktuatsiya saboqlari beqiyos ahamiyat kasb etadi. Tinish belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi nafaqat grammatik to'g'rilik, balki matnning ohangdorligi, fikrning aniq va ravon yetkazilishida muhim vosita sanaladi.

Zamon o'zgarar ekan, bilim va savodga bo'lgan talab ham o'zgarib boradi. Bugungi kunda nafaqat og'zaki nutq, balki yozma savodxonlik ham insonning umumiy madaniyati, tafakkuri, hatto shaxsiy qadr-qimmatini belgilovchi mezonlardan biriga aylangan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, maktab ta'limida punktuatsiya saboqlari – faqatgina tinish belgilarini to'g'ri qo'yish emas, balki o'quvchining fikrni aniq, tushunarli, mantiqiy va estetik ifoda eta olishini ta'minlaydigan muhim vositadir.

Maqolada punktuatsiya saboqlarining samaradorligini oshirish yo'llari, o'quvchilarda yozuv madaniyatini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek, amaliy uslublar va ijodiy yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini jonlantirish masalalari yoritilgan. Maqsad — punktuatsiyani faqat qoida sifatida emas, balki fikr ifodasining estetik va mantiqiy vositasi sifatida o'rgatishning samarali yo'llarini ko'rsatishdir.

Ko'p hollarda o'quvchilar punktuatsiyani shunchaki "vergulmi, nuqtami?" darajasida qabul qilishadi. Aslida esa, har bir tinish belgisi matndagi ma'no ohangini belgilaydi, fikrning ifoda uslubiga, tushunarlilikiga xizmat qiladi. Oddiy misol: "Men oyimni yaxshi ko'raman emas, men oyimni, yaxshi ko'raman!" Jumladagi vergul o'rnining o'zgarishi butunlay boshqa ma'noni anglatadi. Ana shu mayda farqlarni sezish va undan to'g'ri foydalanish – bu savodxonlikning yuqori bosqichi, demakki, har bir o'quvchi uchun zarur ko'nikma.

Yozma savodxonlik, ayniqsa, zamonaviy axborot oqimida — ijtimoiy tarmoqlar, chatlar, tezkor yozishmalar asrida — yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchining yozgan xatida tinish belgilarining joyida qo'yilishi, so'zlarning to'g'ri yozilishi — uning fikrni qanday shakllantira olishini ko'rsatadi. Bu esa faqat imlo emas, balki mantiqiy tafakkur, tilga nisbatan mas'uliyatli munosabat, adabiy savodning natijasi hisoblanadi.

Punktuatsiyani o'rgatishda biz ko'pincha qoidalar bilan cheklanib qolamiz. Ammo bolalarga tinish belgilarini tushuntirishda hayotiy misollar, badiiy matnlar, dramatik ohanglar, hatto kichik sahnalashtirishlar orqali yondashsak, bu saboqlar jonlanadi, qiziqarli tus oladi. Masalan, birgina "nuqta"ni ijodiy usulda ko'rsatish: "Nuqta — fikrning tugash nuqtasi, lekin yangi fikr boshlanishi ham aynan undan boshlanadi."

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiyalar:

1. Yozma ishlarga ko'proq e'tibor berish: Har bir fan o'qituvchisi o'z yo'nalishida o'quvchilardan kichik yozma topshiriqlar so'rab tursin. Bu yozma savodxonlikni umumiy rivojlantiradi.
2. O'yinli yondashuv: "Noto'g'ri punktuatsiyani top" yoki "Jumlaga mos tinish belgisini qo'y" kabi topshiriqlar o'quvchilarning diqqatini oshiradi.
3. O'quvchilar bilan matn tahlili: Mashhur asarlardan parchalarni olib, ularning punktuatsiya tizimini tahlil qilish – real, amaliy tajriba beradi.
4. Shaxsiy kundalik yuritish: Har kuni 3-5 jumla yozishni odat qilgan o'quvchi asta-sekin yozuv madaniyatini o'zlashtira boshlaydi.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, punktuatsiya saboqlari – bu faqatgina grammatik me'yorlarni o'rgatish vositasi emas, balki o'quvchilarda tafakkur, estetik did va nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim omildir. Har bir tinish belgisi – bu fikrning ovoqli ohangi, uning tuzilishi, tuyg'ularning tiniqli aksidir. O'quvchi matnda vergulni, nuqtani yoki tire belgilarini to'g'ri qo'yishni o'rgansa, bu orqali u faqat yozuvda emas, balki fikr yuritishda, nutq tuzishda, muloqotda ham aniq va lo'nda bo'lishga intiladi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, punktuatsiyani faqat nazariy qoidalar orqali emas, balki hayotiy misollar, badiiy matnlar, rolly o'yinlar, analitik tahlil, ijodiy topshiriqlar orqali o'rgatish — o'quvchida mustahkam barqaror ko'nikma shakllantiradi. Tinish belgilariga "his etish" orqali yondoshish esa yozma savodxonlikni bir necha bosqich yuqoriga ko'taradi. Demak, bugungi kunda punktuatsiyaga doir saboqlarni yangicha, interaktiv va metodik jihatdan pishiq yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quvchini faqat grammatik

jihatdan emas, balki mantiqan ham fikrlovchi, tahlil qiluvchi, his qiluvchi shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadi. Zero, to‘g‘ri va ta’sirli yozuv – bu shunchaki savodlilik emas, balki madaniyat, tafakkur va estetik did timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raev N. “O‘zbek tili punktuatsiyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
2. Qurbonov A., Jo‘raev N. “O‘zbek tili grammatikasi”. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Xolmatov N. “Ona tili darslarida yozma nutqni rivojlantirish”. – Toshkent: Ta’lim, 2018.
4. Islomova M. “Til va uslub masalalari”. – Samarqand: Zarafshon, 2016.
5. Karimov U. “Matn tahlili va ifoda madaniyati”. – Buxoro, 2020.
6. Respublika Ta’lim markazi. “O‘zbek tili fanidan metodik qo‘llanma”. – Toshkent, 2021.
7. Zamonaviy pedagogika va tilshunoslikdan olingan maqolalar (Google Scholar, Ziyonet.uz)